

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmatisasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk" dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

“Devoni lug‘otit turk”dagi “oziq-ovqat” semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish

Nilufar Azizova¹

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi tizimli tahlil, semantik maydon asosidagi tahlilning shakllanishi va leksemalarning semantik xususiyatlarini yoritishdagi imkoniyati yoritilgan. Leksemalarning semantik maydon tahlili yuzasidan jahon tilshunoligida hamda o‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar borasida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlar tarixida muhim o‘rin tutgan manba ekanligi, turli mavzulardagi tarixiy leksemalarni jamlagani, ularning ma‘nosini o‘rganish amaliy ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Devonda keltirilgan leksemalarni semantik maydon asosida tavsiflash leksemalar ko‘lami haqida ma‘lumot berishi, shu bilan bir qatorda maydon tarkibiga kiruvchi mikromaydonlarni o‘rganishda, ular o‘rtasidagi semantik munosabatlarni aniqlashda muhimligi ta‘kidlangan. “Devonu lug‘otit turk”dagi gastronomiklar “oziq-ovqat” mikromaydoni va ular tarkibiga kiruvchi semantik guruhlar asosida tahlil qilingan. Leksemalarning o‘ziga xos xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *semantik maydon, tizimli tahlil, makromaydon, mikromaydon, uyali lug‘at, oziq-ovqat mikromaydoni, non mahsulotlari, sut mahsulotlari, taom nomlari.*

Kirish

O‘zbek tilshunosligida mazmuniy maydon aspektida bajarilgan tadqiqotlar, asosan, hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan amalga oshirilgan. Lekin tarixiy manbalar so‘z boyligini mazuniy va semantik maydon jihatidan o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligi, shuningdek, turkiyshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligi sir emas. “Devonu lug‘otit turk”da qayd etilgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalarni ilk bor mazmuniy maydon aspektida tahlil etish kelajakda shu turdagi tadqiqotlarning keng miqyosda amalga oshirilishiga turtki bo‘ladi.

¹ Azizova Nilufar – ToshDO‘TAU tayanch doktoranti.

Iqtibos uchun: Azizova N. “Devoni lug‘otit turk”dagi “oziq-ovqat” semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 142-153.

Tilni mazmuniy maydon asosida o’rganish Sharq tilshunosligida juda qadimdan mavjud bo’lib, ideografik lug’atlar va qomusiy asarlar orqali shakllangan. Alifbo tartibida emas, balki mavzuiy guruhlar asosida tuzilgan lug’atlar ideografik lug’at sanaladi.

Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asari ana shunday ideografik lug’atlardan biri sanaladi. Ushbu lug’at 15 bobdan iborat bo’lib, uning 1 – 14 -boblarida 400 ga yaqin turkiy (o’zbekcha) fe’llar arab alifbosi tartibida har biri 15 tagacha shaklda berilgan. Natijada uya lug’atning namunasi vujudga keladi. Oxirgi bob oldingi 14 bobdan tamomila farq qiladi. Chunki unda ismlar mavzu asosida joylashtiriladi, to’qqiz mavzuga bo’linadi:

- 1) osmon va u bilan bog’liq tushunchalar;
- 2) yer va u bilan bog’liq tushunchalar;
- 3) ot va egarlanadigan hayvonlar;
- 4) burgutlar va yovvoyi qushlar;
- 5) odam jismi a’zolari;
- 6) qarindoshlik nomlari;
- 7) qurol-aslaha nomlari;
- 8) sanoq nomlari;
- 9) olmosh, ravish, bog’lovchi va qo’shimchalar.

Semalar semematarning semantik maydonda joylashish mavqyeiga qarab arxisema, integral sema, differensial sema va potensial sema kabi tiplarga bo’linadi va ular ierarxik tartibdagi o’rpiga qarab turlicha vazifa bajaradi. Buning uchun ularning har biriga alohida-alohida to’xtab o’tish va tahlillar berish to’g’ri keladi.

Semantik maydon nazariyasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O.B. Polyanchuk va D.S. Motorina “dengiz” so’zining semantik maydonini fransuz tili materiallari asosida tahlil qilib, uni 32 ta leksik-semantik guruhga ajratadi. Shulardan 23 tasi otlar, 5 guruhi sifat va qolgan 4 guruhi fe’l so’z turkumiga oidligini aniqlaydi (Polyanchuk 1997).

M.A.Bocharova semantik maydonning til tizimidagi o’rnini o’rganib, semantik sohadagi 3 ta o’lchov (sintagmatik, paradigmatic va assotsiativ-derivatsion) haqida so’z yuritadi (Bocharova 2012).

K.A. Vlasova va M.N.Titova “qaramoq” fe’lining 12 dan ortiq leksik-semantik variantlarini tahlil qilgan [Vlasova, 2014:3-6].

Rus tilshunosi Y. V. Massalskaya nemis tilidagi maqollardagi “inson” semantik maydoniga xos xususiyatlarni o’rganib, uni quyidagicha tavsiflaydi:

- 1) inson his-tuyg’ulari leksik-semantik guruhi:
 - a) ijobiy his-tuyg’ular: sevgi, do’sstlik;

- b) salbiy his-tuyg'ular: qo'rquv, g'am, baxtsizlik;
2) qarindoshlik aloqalari leksik-semantik guruhi: ota-ona, er-xotin;
3) ijtimoiy-iqtisodiy holatni bildiruvchi leksik-semantik guruhi: boy-kambag'al.
4) yoshni anglatuvchi leksik-semantik guruh: yosh-qari (Massalskaya 2016,123).

Asosiy qism. Insonlarning xulq-atvori, tili, madaniyati, ular yashaydigan ijtimoiy hayot, muhit va jamiyatning shakliga bog'liq. Ijtimoiy hayotdagi urf-odat va an'analar ma'lum bir tushunchalarda, tushunchalar esa so'zda aks etadi. Ijtimoiy tushunchalar va shu tushunchalarga doir so'zlar dinamikasini aniqlash xalq madaniyati va urf-odatlarining rang-barangligini ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Albatta, ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan o'zgarishlar tilda ham o'z ifodasini topadi.

Dunyoning turli mintaqalarida yashovchi xalqlarning ijtimoiy hayoti, yashash tarzi, urf-odati ularning joylashish o'rne, geografik joylashuvi kabi omillar nafaqat ularning tili, balki dunyoqarashi va xarakter xususiyatiga ham bog'liq. Masalan, qaysidir mintaqada yashovchi xalq ko'p bor urushlarni, bosqinchiliklarni ko'rib doimiy ravishda himoyalangan bo'lsa, o'sha xalq uchun betaraflik va yakkalanish oliy qadriyat hisoblanadi. Ya'ni doimiy urushlarni ko'rgan xalqning genida, dunyoqarashida o'zgalardan qo'rqish, ularga ishonmaslik va begonalardan shubhalanish natijasida uning xarakterida yakkalanish xususiyati namoyon bo'ladi. Keyinchalik bu xususiyat guruh shaxsiyatiga aylanadi. Boshqa bir mintaqada yashovchi xalqda to'qnashuvlar kam yuz bergan, ovqat va ichimlik mo'l, yurt tinch, shu sababli ham, bu xalq mehmondo'st sanaladi. Muayyan xalq yoki millatda tabiiy ehtiyojlardan tashqari, san'at va madaniyat yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Tadrijiy taraqqiyot natijasida madaniyat asta-sekin xalq ko'rinishiga kelib, kengayib, pirovard qadriyatga aylanadi.

"Devonu lug'otit turk"da ilk eski turkiy til (XI- XII asrlar) ga xos ijtimoiy hayotni ifodalovchi leksemalar tizimi o'rin olgan. Bu leksemalar o'sha davr ajdodlar turmush tarzida sodir bo'lgan jarayonlarni yaqqol ko'rsatadi.

Dilavar Duzgun "Devonu lug'otit turk"da qo'llangan ijtimoiy terminlar tarjimasidagi farqlarni quyidagi jadval qo'rinishida beradi

Дилавар Дузгун "Девону луғотит турк"да қўлланган ижтимоий терминлар таржимасидаги фарқларни қуйидаги жадвал кўринишида беради (Dilaver, 2015:215).

Orijinal Metnin Tiplasmasi			Besim Atalay Cevirisi	Dankoff-Kelly Cevirisi	Erdi-Yurtsever Cevirisi
Kelimenin geçtiği madde	Kelime	Arapça karşılığı			
çıkdı	törü	“resm ve insaf”	görenek ve insaf	law and justice	töre (yasa ve adalet)
çuwı		resm	tören	order of precedence	yönetim töresi
endik	törü	taslahe	barışa kavuşsun	prosper	refah yayılsın
kaldı	törü	resm	âdet	custom	töre
kaz		de’b	görenek	custom	âdet
küc	törü	resm (yani insaf)	görenek (merhamet)	custom (meaning justice)	töre [adalet]
ögreyük	ögreyük	âdet	görenek	custom	âdet
törü		resm	görenek	custom	töre
xumarı		âdet		custom	gelenek
yaraşdı		resm		custom	âdet
yogladı		âdet	görenek	custom	gelenek

Semantik maydon metodi eski turkiy tilda ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalarni o’rganishda ham aniq ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi. Jumladan, “Devonu lug’otit turk” asaridagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalar semantik maydoni quyidagi mikromaydonlarni o’z ichiga oladi: 1. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalar mikromaydoni. 2. Muloqot faoliyati mikromaydoni. 3. Mehnat faoliyati mikromaydoni. 4. Kasb-hunar mikromaydoni. 5. Chorvachilik mikromaydoni. 6. Tibbiyot mikromaydoni.

Semantik maydonni hosil qiluvchi leksemalar o’z ichida muayyan mantiqiylik asosida bog’lanish hosil qiladi. Shunga ko’ra eski turkiy tildagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalar semantik maydon qismlari o’rtasidagi munosabatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Jins-tur munosabati. 2. Butun-bo’lak munosabati. 3. Qarama-qarshilik munosabati. 4. Sinonimik munosabat.

Taom nomlari mikromaydoni. “Devonulug’otit turk” asarida qadimgi turkiy xalqlarning urf-odatlarini, an’analari bilan birgalikda ular iste’mol qiladigan oziq-ovqat nomlari ham keltirilgan. Turkiy xalqlar gastronomiyasida, asosan, xamir va go’shtdan tayyorlangan taomlar iste’mol qilingan. Bu turkiy xalqlar yashagan geografik muhit, ijtimoiy shart-sharoit bilan bog’liq.

Qadimgi turkiy xalqlarning *tutmaç* degan mashhur ovqati bo’lib, uning shunday nomlanishi Iskandar Zulqarnaynga bog’liqligi aytiladi. Oziqlari kamayib qolgan odamlar ochlikdan qo’rqib, Iskandarga bizni och qo’yma, och tutma mazmunida “tutma ach” deganlar. Bu ovqat tanaga quvvat berib, yuzni qizartirgan, tezda hazm bo’lmagan. Bu ovqat yeyilgach, suvi ham isilgan. Shundan

tutmachga aylanib ketgan (DLT, I, 422). Bu ovqatning tayyorlanishida ishlatiladigan narsaga nisbatan siš deyishadi. Kabob pishirishda ishlatiladigan temir ham siš deb atlatadi. Navoiy asarlarida hozirgi kundagidek six shaklida qo'llaniladi:

Bazmning asbobini qilg'il nasaq,
Hozir etib sixu kabobu tabaq.

Hozirgi kunda qo'llaniladigan "shashlik" so'zining asosi ham shu so'zga borib taqaladi. Ya'ni shashlik "sixli" degan ma'noni anglatadi (DLT, I, 319).

Qadimgi turkiy xalqlarning taomnomasida xamirli va go'shtli taomlar asosiy o'rin tutgan. Sababi, xamirli taomlar qorinni to'q tutgan, sovuq va ayozli kunlarda asosiy quvvat manbaiga aylangan. Turkiy xalqlar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangani uchun go'sht mahsulotlari sevib iste'mol qilingan.

Kuzda har xil o'tlar bilan quritilib, ko'klamda yeyiladigan go'sht **yazuq et** birikmasi bilan ifodalangan. Ya'ni "yozda (ko'klamda, bahorda yeyiladigan)et", go'sht" ma'nosida.(DLT, II, 23). Bu hozirgi kunda sevib iste'mol qiladigan hasip ovqatiga to'g'ri keladi.

"Yog'" ma'nosini **öz** so'zi ifodalagan. Masalan, *özlüg aş-yog'lik osh, yog'lik taom.* (DLT, I, 80). Bunga ma'nodosh sifatida *yir* leksemasi ham qo'llanilgan. *Aşıçta yir yoq-qozonda yog' yo'q.* Hozirgi kunda rus tiliga o'zlashgan jir so'zining ham kelib chiqishi shu so'zga borib taqaladi. (DLT, I, 313). *Sağyağ* shaklidagi leksema ham "yog'" ma'nosini bildiradi. O'g'uzlar charvini yog' deydilar (DLT, III, 175). Bu so'z asli "moy ajrat-" ma'nosidagi ya- fe'liga -q qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan (ESTYa,IV, 59).

Qovrilib tayyorlanadigan ovqat nomi **qoğurmač** deb ataladi. Qovrilgan bug'doy ham shunday deyiladi (DLT, I, 454).

Alisher Navoiyning asarlarida ham bu so'z qo'llanilgan:
Xirman yerida tazarvu durroj,
Yer tobasidin terib qovurmoch (LM, 189).

Asal leksemasini turklar va o'g'uzlar **arı yağı** deb atashgan. Devonda uning bal shakli ham qo'llaniladi. She'rda shunday kelgan:

Bardī senä yek otru tutup bal,
Barçin kehibdn talu yuwğa bolup qal.

"Shayton seni uchratdi, senga asal tutib, dunyo shirinligi-rohatini berdi. Mag'rur bo'lib ipakli kiyimlar kiyding. Agar uning aldovini tushunmaydigan bo'lsang, shunday qolib rohatlana ber (DLT, III,171).

Asarda Chindan keltirilgan bir xil dengiz balig‘ining shoxi čatuq leksemasi bilan ifodalangan. U bilan taomda zahar bor-yo‘qligi tekshiriladi. Shundayki, bu shoxni sho‘r va boshqa taom ustiga qo‘yilsa, taomda o‘z-o‘zidan harakat paydo bo‘ladi. Olov yoqilmagan holda taom qaynay boshlaydi. Yoki idishga u shox qo‘yilsa, idishdan bug‘ chiqmagan holda ter paydo bo‘ladi (DLT, III, 237).

“Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan taom nomlari	Tayyorlanishi
<i>Uwa</i>	Guruchni qaynatib, so‘ng sovuq suvga solinadi, keyin suvini to‘kib, shakar solinadi, sovuqlik uchun yeyiladi (DLT, I, 116).
<i>Tub</i>	Bug‘doyni suvda qaynatib, arpa xamiri bilan aralashtirib, bir idishga solinib, namatga o‘rab, issiq bir joyga qo‘yiladi, ertasiga yeyiladi (DLT, I, 308).
<i>Buxsi</i>	Bug‘doy qaynatilib, unga bodom mag‘zi qo‘shilib xumchaga solinadi, ustiga arpa suvi quyiladi va shu holda qo‘yib achitiladi. Bug‘doyini yeyiladi, suvi esa ichiladi.
<i>Tobiq sönük</i>	To‘piq so‘ngaklaridan qilinadigan ovqat
<i>Suqtu</i>	Jigar, go‘sht va turli dorivorlar bilan to‘ldirilib, ichaklarga solinib, keyin qaynatib yeyiladigan go‘shtli ovqat (DLT, I, 394).
<i>Türmək</i>	Tuxum va go‘shtdan tayyorlanadigan ovqat (DLT, I, 441).
<i>Mün</i>	Yag‘molarda sho‘rva degan ma‘noni bildiradi (DLT, I, 327).
<i>Qoğurmač</i>	Qovrilib tayyorlanadigan ovqat nomi
<i>Awzuri</i>	Bug‘doy va arpa uni bilan aralashtirib qilinadigan ovqat (DLT, I, 162).
<i>Küršäk</i>	Tariq, qo‘noqlarning mag‘zini ayirib, suv yoki sutga qaynatib, so‘ng ustiga yog‘ quyib yeyiladigan ovqatning nomi (DLT, I, 443).
<i>Bulğama</i>	Yog‘i ham yo‘q, mazasi ham yo‘q yovg‘on osh
<i>Buldunī</i>	Ichiga uzum yoki mayiz solib tayyorlanadigan ovqat (DLT, I, 453).
<i>Yürgämäč</i>	Qorin va ingichka ichak ichiga solinib, qizdirilib yoki qaynatilib yeyiladigan ovqat (DLT, III, 64).

Sīm-simraq	Kalla qaynatilib pishirilgach, mayda qilib to'g'raladi, so'ngdorivorlar bilan birga idishga solinadi va ustiga achigan qatiq solinib, u singigach, yeyiladi (DLT, III,150).
Qīyma ügrä	Bir xil xamirli ovqat nomi, uni chumchuqlar tili kabi yupqa va qing'ir qilib kesiladi (DLT, III,188).

Ichimlik nomlari mikromaydoni. “Devonu lug’otit turk”da keltirilgan ichimliklar, asosan, chorva hayvonlari suti hamda don mahsulotlaridan tayyorlangan. Bo’za tayyorlashda ishlatiladigan achitqining nomi **oğut** deb atalgan. Bu ko’p dorilardan iboratki, unlari undirilgan arpa uni bilan aralashtiriladi. Keyin qorishtirib, g’olaklarga o’xshatib kesiladi, so’ng quritiladi. Keyin bug’doy va arpa qaynatiladi. O’sha hamir o’g’itni (g’o’lakni) yanchib, har bir bug’doyga bir g’o’lakdan sepiladi, so’ngra qaynatilgan bug’doyni toza bir narsaga o’rab, uch kungacha dimlab qo’yiladi. Shundan keyin xumga solinadi va yetilguncha o’n kun qo’yiladi. So’ng ustiga suv quyib suziladi. Bu bug’doy sharobi [bo’za]dir (DLT, I, 84).

Sanoch-meshlarga solib, achitib ichiladigan yilqi suti **qnmnz** deb atalgan. Bu so’z asli “mavjlanmoq, to’lqinlanmoq” ma’nosidagi *qum-* fe’liga *-(u)z* qo’shimchasini qo’shish orqali hosil bo’lgan (O’TEL, I, 547). Ya’ni bu ichimlikni chayqatib achitib tayyorlanish jarayoni bunga asos bo’lgan. O’zbek tilining izohli lug’atida qimizga quyidagicha ta’rif berilgan: biya sutidan maxsus idishlarda bijg’itish yo’li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik (O’TIL, V, 292).

Turklarda uchraydigan sirkaning nomi **mandu** deb atalgan. Uning tayyorlanish usuli ham “Devon”da keltirilgan. Yangi uzum suvini olib, xumchaga solinadi va achitiladi. So’ng ustiga toza musallas solib, bir kecha qo’yiladi. Nihoyat, sirka bo’lib yetiladi. Sirkaning eng yaxshisi shudir (DLT, I, 397).

Arpa, bug’doy va tariqdan tayyorlangan ichimlik **begni** leksemasi bilan ifodalangan (DLT, I, 408). Bug’doy suvining, sharoblik quvvati ketganidan keyingi suvlik holi yoki suv qo’shilgan ayron *suwsuŝ* deb atalgan (DLT, I, 428). Yanchilgan bug’doydan qilinadigan ichimlik a’gartgu deyilgan (DLT, III, 446).

“Bo’za” ma’nosida **bor** leksemasi qo’llangan. Asarda bu bo’yicha quyidagi maqol kelgan: *Bor bolmañnp sirkð bolma*-sharob bo’lishdan oldin sirka bo’lma. Bu maqol o’zini qarilarga o’xshatadigan yoshlarga nisbatan qo’llaniladi (DLT, III, 133). Bu leksema “Qutadg’u bilig”da ham shu ma’noda kelgan: *Bor içmä fäsadqa qatılma yïra, zina*

qılma fasıq atanma tur-a – Sharob ichma, fasodga yaqin yurma, zino qilib, fosiq nomini olma (DTS 639). Asarda shu asosdan yasalgan "mayxo'r" ma'nosidagi *borĉn* leksemasi keltirilgan.

Sut mahsulotlari mikromaydoni. "Devon"da sut mahsulotlari, undan tayyorlanadigan taomlarga keng izoh berilgan. Sut mahsulotlarining xilma-xil tarzda uchrashi turkiy xalqlarning asosiy faoliyat turi chorvachilik bilan bog'liq. *Uĥntma*-suzmaga nisbatan qo'llaniladi. Shunday deyilishiga sabab sutni uyutib qatiq qilinishi va undan suzma tayyorlanishiga aloqador (DLT, I, 161).

Yuġurt-qatiq, yogurt ma'nosini bildiradi: *yuġurt uĥnĥdn* (DLT, I, 191). "Qutadg'u bilig"da bu leksema *yoġrut* shaklida qo'llaniladi: *Qimiz sūt ya yūn yaġ ya yoġrut qurut* - Qimiz, sut, yo yung, yog', yoki qatiq, qurt (QBN 4338). Hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanadigan va boshqa tildan o'zlashgan deb hisoblanadigan yogurt so'zining etimologiyasi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi.

Mahmud sut mahsulotlari va oziq-ovqat nomlarini keltirish bilan birga ularning qanday kasalliklarga davo bo'lishi, tayyorlanish jarayonini ham aytib o'tib ketgan. Masalan, *ibrūk*- qatiq bilan sutni aralashtirib hosil qilingan suyuqlik. Ichi qotgan odamga surgı dori sifatida ham berilgan. (DLT, I, 126). Aslida "qotishtirish, aralashtirish" ma'nosidagi (DLT, I, 362) qat- fe'lidan yasalgan, sirka va qatiq kabi tutmoch ovqatlariga qo'shiladigan dorivor, sutning uyutilganiga ham qatiq deyiladi (DLT, I, 363).

Sut va qatiqdan ishlangan, suzmaga o'xshash, yeyiladigan ovqatga nisbatan *ikdūk* atamasi ishlatiladi. Bu ovqat bemor kishilarni davolashda ham qo'llaniladi (DLT, I, 130). Suzma bilan aralashtirib, tutmoch oshiga qo'shiladigan bir turli sassiq kavrak ildizi *tagna* deyiladi (DLT, I, 408).

Asarda "qatiq tomizg'isi" ma'nosida *qor* leksemasi qo'llanilgan. Bu xurmachada ivitilgan qatiq yoki achigan qimizdan idish tagida qoldirib, ustiga sut qo'shib, qatiq yoki qimiz qilishdir (LT, III, 133).

Non mahsulotlari mikromaydoni. Turkiy xalqlarda non asosiy ozuqa vositasi bo'lgan. Shu sababli ham tayyorlanish usuliga qarab nonning bir qancha turlari mavjud. *Ebōk*-bolalar tilida "non" yoki "nanna" demakdir. (DLT 98). Yag'mo, tuxsi va ba'zi o'g'uz va qipchoqlarda non *ebmāk* deb atalgan (DLT 126). "Hamirdan tayyorlanib, tandir, o'choqda pishiriladigan yegulik" sememasi qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda asl *etmāk* // *ātmāk* so'zi bilan ifodalangan (DLT 188). *Tuz etmākni keñ tut kişikā yedür, kiši 'aybī körsan sen ačmä yitur*–Tuz va nonga (fe'lingni keng) tut, odamlarga yedir, kishining aybini ko'rsang, ochma, yashir. Mahmud Koshg'ariyda

noni ko'paygan, boy bo'lgan kishiga *etmäkləndən* leksemasi qo'llangan. XV asr boshlaridan e'tiboran qayd etilgan semema fors-tojikcha *nan* leksemasi bilan ham anglashilgan. Mazkur o'zlashma ilk bor "Yusuf va Zulayho"da iste'molga kirgan (Dadaboyev 2007:59). Alisher Navoiy asarlarida bu leksemaning ekmak shakli qo'llanilgan: "Ekmak emas, borcha bukim turg'asen, arpau bug'doy sochibon o'rg'asen. Hozirgi turk tilida non ma'nosida *etmāk* so'zi qo'llaniladi (O'TL 134).

Asarda nafaqat, nonning turlari va nomlari, balki uning tayyorlanish jarayoni ham keltirilgan. *Quyma* nomli yog'li nonning tayyorlanish jarayonini quyidagicha keltiradi (DLT,188). Uni sharbat bilan qorilgan xamirdan yupqa qilib kesiladi. So'ng qozonda qaynayotgan yoqqa solib, aralashtiriladi, keyin ustiga shakar sepib yeyiladi (DLT,188).

Asarda *qara etmāk* leksemasi bilan ifodalangan bir xil non nomi qo'llangan. Uning tayyorlanish jarayoni quyidagicha keltirilgan: go'sht hil-hil pishib, so'ngaklari ayrilib ketguncha qaynatiladi. So'ng ustiga un, yog', shakar solinib, bir-biriga aralashtirib qo'yilguncha qaynatiladi, so'ngra yeyiladi. Bu so'z *qara qura* tarzida ham qo'llanilgan (DLT,242).

"Devonu lug'otit turk"da keltirilgan non turlari	Tayyorlanishi
<i>Qaqurğan</i>	xamirga moy qo'shib tandirda va o'choqda pishiriladigan non (DLT,473)
<i>Küwşäk etmāk</i>	yaxshi xamirdan bo'lgan non (DLT,444)
<i>Büşkāl</i>	lochira, yupqa non
<i>Yarma yuğa</i>	bir xil qatlama non (DLT,41)
<i>Büşkäč</i>	yupqa non nomi (DLT,422)
<i>İcbiri</i>	kulda pishirilib, yoqqa to'g'rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non (DLT,159).
<i>Kavşak</i>	yaxshi xamirdan qilingan non
<i>Küzmän</i>	qo'rda pishirilgan non (DLT,416).
<i>Qatma</i>	Yog'da pishiriladigan qat-qat non yoki qatlamaga nisbatan leksemasi qo'llaniladi (DLT, 408).
<i>Kömäč</i>	O'choqda cho'qqa ko'mib pishiriladigan nonga nisbatan ishlatiladi.
<i>Toquč</i>	Kishini qornini to'q tutadigan nonga, kulchaga nisbatan ishlatiladi.
<i>Čuqmın</i>	Qozonda suv bug'i bilan pishiriladigan, oshqozonga oson singiydigan lochiraga o'xshagan non
<i>Yuğa</i>	qat-qat non (DLT,34)

“Devonu lugotit turk”da inson organizmiga quvvat va shifo bo‘ladigan taom nomlari keltirilgan. Qatiq bilan sutning aralashtirilib tayyorlangan **ibrük** degan taom ichi qotgan odamga surgı dori sifatida beriladi.

Xamirni no‘xatday maydalab, kesib tayyorlanadigan ugra oshining bir turi sarmačuq deyiladi. Buni kasal va kasalga o‘xshashlar ichishadi. Ko‘pincha davo ovqat sifatida qo‘llaniladi (DLT, I, 480).

Xulosa va tavsiyalar. Olam bir butun tizimdir. Borliqning tizimliliği shundaki, u o‘zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Bu yaxlitlik kichik butunliklarga bo‘linuvchanlik xususiyatiga egadir. Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma‘lum umumiy belgilari asosida sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilariga ko‘ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o‘zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo‘lsa, ayni chog‘da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o‘zaro shartlangan munosabatda bo‘ladi. Shunday qilib, ob‘ektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni paytda, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistemadir.

Adabiyotlar

- Абдушукуров, Б. (2017). “Қиссаси Рабғузий” лексикаси. Филология фанлари доктори диссертацияси. –Тошкент.
- Бочарова М.А. (2012). Семантическое поле как способ системного описания лексики. Вестник РУДН, серия Вопросы образования: языки и специальность. № 4.
- Власова, К.А., Титова М.Н. (2014). Лексико-семантическое поле глагола look: лексикографический аспект//Молодой учёный. №21.
- Дадабоев, Х., Ҳамидов, З., Холманова, З. (2007). Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т:Фан.
- Düzgün, Dilaver. (2007). Divanü lügati’t-türk’te sosyal normlari karşılayan kavramlar. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi Sayı 35 Erzurum.
- Массальская, Ю. В. (2016). Семантическое поле “человек” в немецкой паремиологии (на материале немецких пословиц). Филологические науки. Вопросы теории и практики. –М., -№.-iSSN 1997-2911.
- Поляничук, О.Б., Моторина Д.С. (1997). Структура семантического поля “море” на материале французского языка.

Shartli qisqartmalar

DLT –Девону луғотит турк I. –Тошкент, 1960, 1963.

- ESTY –Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука, 1974–1989.
- O'TL –Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изоҳли луғат. –Тошкент, 1997.
- O'TEL –Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент, 2000.

Studying the lexical units of «food» in the «Devoni lugotit turk» based on the semantic field

Azizova Nilufar¹

Abstract

The article describes system analysis in Uzbek linguistics, the formation of analysis based on the semantic field, as well as the possibility of clarifying the semantic properties of lexemes. The research carried out in world linguistics and Uzbek linguistics on the analysis of the semantic field of lexemes is briefly discussed. It is noted that the work of Mahmud Koshgari "Devonu Lug'otit Turk" is an important source on the history of the Turkic peoples, that it contains historical lexemes on various topics, and the study of their meaning is of practical importance.

It is emphasized that the description of the lexemes represented in Devon on the basis of the semantic field provides information about the scope of application of the lexemes, as well as the importance of studying the microfields included in the macrofield and determining the semantic connections between them. The gastronomes in "Devon Lugotit Turk" were analyzed based on the microfield "food" and the semantic groups included in them. The features of lexemes are highlighted.

Key words: *semantic field, system analysis, macrofield, microfield, mobile dictionary, microfield of food products, bakery products, dairy products, names of food products, cereal products.*

REFERENCES

- Abdushukurov, B. (2017). "Kissasi Rabguzi" lexicon. Doctor of Philology Dissertation. –Tashkent.
- Bocharova, M.A. (2012). Semantik field as a way of systematically describing vocabulary. Bulletin of RUDN University, series Issues of education: languages and specialization, N-4.

¹ Azizova Nilufar – Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

For reference: Azizova N. Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on the semantic field. *Uzbekistan: Language and culture. Linguistics.* 2024-2: 142-153.

- Vlasova, K.A., Titova M.N. (2014). Lexico-semantic field of the verb look: lexicographic aspect// Young scientist. N-21.
- Dadaboyev, H., Hamidov, Z., Kholmanova, Z. (2007). The history of the lexicon of the Uzbek literary language. -T.:Fan.
- Dilaver, Duzgun. (2007). Concepts that meet social norms in Divanu lugatit turk. Turkic Studies Institute Journal Issue 35 Erzurum .
- Massalskaya, Yu.V. (2016). Semantic field "human" in German paremiology (based on German proverbs). Philological sciences. Questions of theory and practice. -M., No.iSSN 1997-2911.
- Polyanchuk, O.B., Motorina D.S. (1997). The structure of the semantic field "sea" based on the material of the French language.